

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA  
INSTITUTI**

**«IJTIMOIY FANLAR» KAFEDRASI**

**MARKAZIY OSIYO FALSAFIY TAFAKKURI  
TARAQQIYOTIDA TASAVVUF TA’LIMOTINING  
O‘RNI VA AHAMIYATI**



**mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy  
ANJUMANI**

**Buxoro – 2023**



«Markaziy Osiyo falsafiy tafakkur taraqqiyotida tasavvuf ta'limotining o'рни va ahamiyati» mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjumani Buxoro muhandislik-texnologiya institutida 2023 yil 25 mayda o'tkazildi. Anjuman to'plamiga Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ilgari surilgan ustuvor vazifalar va tavsiyalardan kelib chiqqan holda, Xojai Jahon tavalludining 920 yilligi va Bahouddin Naqshband tavalludining 705 yilligiga bag'ishlab yozilgan, shuningdek, tasavvufiy g'oyalarning genezisi; Markaziy Osiyoda ilk tasavvufiy tariqatlar; Markaziy Osiyoda mumtoz tasavvufiy tariqatlar; tasavvufdagi falsafiy g'oyalar hamda Ziyorat turizmi bilan bog'liq muammo va yechimlarni o'zida aks ettirgan maqolalar kiritildi.

To'plam materiallari yoshlarga tasavvuf ta'limotlari va ularda aks etgan tasavvufiy g'oyalar, tasavvuf falsafasi tarixi va bugungi kundagi taraqqiyotini o'rgatish, xalqimizning o'tmishda ulug' pirlar yozib qoldirgan asarlar va ular bergan bilimlar asosida ma'naviyatimizning shakllanganligi haqida bilim berish bilan birgalikda ularni vatanparvar, ma'naviy jihatdan barkamol inson etib shakllantirishga xizmat qiladi. Professor-o'qituvchilar, tadqiqotchilar, falsafa va din tarixi bilan qiziquvchi talaba-yoshlar uchun mo'ljallangan.

**Tahrir hay'ati:**

**Mirzo Sharipov**-BuxMTI rektori, fizika-matematika fanlar doktori, professor

**Gulchehra Navro'zova**-Bux.MTI. «Ijtimoiy fanlar» kafedrasida professori, falsafa fanlar doktori

**Erkin Zoyirov**-BuxMTI. «Ijtimoiy fanlar» kafedrasida mudiri, falsafa fanlari nomzodi, dotsent

**Feruz Bafoyev**-BuxMTI. «Ijtimoiy fanlar» kafedrasida dotsenti, siyosiy fanlari nomzodi

**Mas'ul maharrir:**

**Abduraxim Boltayev**-BuxDU dotsenti, siyosiy fanlar nomzodi

**Voxidova Munira**-BuxMTI. «Ijtimoiy fanlar» kafedrasida dotsenti, falsafa fanlari nomzodi.

**Taqrizchilar:**

**Oygun Sharipova**-BuxDU dotsenti, falsafa fanlari doktori (DSc)

**Avliyoqulov Uchqun**-Mir Arab Oliy madrasasi prorektori



## HAKIM TERMIZIYNING "XATM AL-AVLIYO" ASARIDA VALIYLIK MASALASI VA UNING MUTAFAKKIRLAR ILMIY MEROSIGA TA'SIRI

*Xaitov Lazizbek-BuxDU "Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedراسي dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori(Phd)*

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn al-Xasan ibn Bashir Hakim Termiziy (820-932) mashhur mutasavvuf, muhaddis, xofiz-ul Qur'on va olim bo'lib, aqida, tafsir, hadis ilmlari to'g'risida o'lmas asarlar yozgan. Misrlik olim, shayx Abdulfattox Abdulloh Barakaning yozishicha, Hakim Termiziy 400 dan ortiq asarlar yaratgan bo'lib, ulardan 60 ga yaqini bizgacha yetib kelgan. Hakim Termiziyning bizgacha yetib kelgan asarlaridan biri "Xatm al-avliyo" bo'lib, unda allomaning valiylik haqidagi qarashlari keng bayon qilinadi. "Xatm al-avliyo" 29 bobdan iborat Bu asar valiylik tizimi, uning qonun qoidalari asosiy talablari to'kis bayonini topganligi bilan qadrlidir.

Hakim Termiziyning «Xatm al-avliyo» haqidagi ta'limoti olimlarning dolzarb mavzularidan biriga aylandi va butun Xuroson, ayniqsa, Termiz va Balxda keng tarqaldi. O'rta asr sufiy olimlarining ham ko'pchiligi bu ta'limotni qo'llab-quvvatlaganlar. Jumladan, Imom G'azzoliy, Shihobuddin Suhravardiy, Suyutiy, Bidlisiy va Bahouddin Naqshband kabi tasavvuf va tariqat ahllari allomaning ta'limotlaridan ta'sirlanganlar<sup>1</sup>.

Ana shulardan biri fors tilidagi tasavvufga oid ilk asar muallifi Ali ibn Usmon Jullabiy Hujviriy (vaf. tax. 1076 y.) bo'lib, u o'zining mashhur «Kashf al-mahjub» asarida Hakim Termiziy ta'limotini qo'llab-quvvatlab, uning valiylik haqidagi qarashlarini quyidagicha izohlaydi: «Tasavvuf va ma'rifatning asosi valiylikka tayanadi. Ko'ramizki, Alloh taolo O'zi uchun valiylarni tanlab olib, ularni O'z suhbatlari bilan bahramand etgan va O'z mulkiga hokim qildi. Valiylarni turli karomatlar bilan siyladi va ta'maning fasodlaridan, nafs va havoning vasvasalaridan pok qildi. Fikrlarini Alloh haqida o'ylash bilan band qildi. Ma'rifatlarini O'zi bilan jam qildi. Valiylar avval ham bo'lganlar, hozirda ham mavjud, Xudo xohlasa qiyomatgacha bo'ladilar. Alloh ularni boshqalardan afzal ko'rdi va Muhammad (s.a.v) dinlarini himoya qilishni va'da qildi. Bu din uchun ulamolar nazdida naql va aql hujjat bo'ldi. Ko'rish va eshitish esa avliyolar nazdida dalildir. Bu borada mo'taziliylar va hashaviylar bizga qarshi bo'lganlar. Mo'taziliylar muslim musulmdan ustun bo'ladi, ammo valiy valiydan, nabiyalar esa bir-birlaridan afzal bo'lolmaydilar, - deydilar. Bu kufrdir! Hashaviylar bu borada xuddi mo'taziliylar kabi fikrdalar. Ular ham buni inkor qilganlar. Avliyolar bu olamning hokimlaridir. Alloh ularni bu ishga tayinlagan. Ularni nafslariga ergashmaydigan qildi. Ularning halolligi barakotidan osmondan yomg'ir yog'adi, pokiza hayotlari tufayli yerdan ekinlar unadi. Ularning duolari bois musulmonlar kofirlarni yengib kelmoqdalar. Valiylar gunohdan pok emaslar. Bu faqat nabiyalarga xosdir. Lekin valiyliklari bois fitnadan himoya qilinganlar. Bilgilki,

<sup>1</sup> Usmonov I. Al-Hakim at-Termiziy ta'limotining ibn al-Arabiy qarashlariga ta'siri // Imom al-Buxoriy saboqlari, 2003. - № 4. - B. 185.



sufiy shayxlar: «Xalq oldida doimo avliyolar hamma vaqt paygʻambarlardan pastroq darajadadir», – deydilar. Paygʻambarlar avliyolardan afzaldirlar. Chunki valiylikning eng choʻqqisi nabiylarning boshlanishidir. Baʼzi nabiylar valiylardir. Lekin hamma valiylar ham nabiylar emasdir. Valiylarning ayrim vaqt va holatlari nabiylar huzuridagi maqomdir. Bu maqom nima? Bu sir. Bu sunnat va mutasavviflarning usulidir<sup>1</sup>». Hujviriy Hakim Termiziyning soʻzlarini davom ettirib, valoyatning siri paygʻambarlikdan afzaldir, deb eʼtirof etadi.

Hakim Termiziyning «valoyat nazariyasi»dan eng koʻp taʼsirlangan va oʻz asarlarida bu mavzuga alohida toʻxtalgan olimlardan biri ibn Arabiydir. Ibn Arabiyning «valiylik»ka oid qarashlarida Hakim Termiziyning taʼsiri yaqqol seziladi. Ibn Arabiy kitoblarida Hakim Termiziy asarlaridan koʻplab yirik lavhalarni iqtibos qilib keltirganligi buning yorqin dalilidir<sup>2</sup>. Shuningdek, ibn Arabiy «xatm al-avliyo» xususida quyidagi hadisni dalil qilib keltiradi: «Avvalgi paygʻambarlarga nisbatan mening ahvolim shunga oʻxshaydi: Odam (a.s) bir bino quribdi. Chekkasida bir tosh sigʻadigan darajada tosh qoldirib, binoni tamom qurib bitiribdi. Uyni tashqaridan tomosha qilganlar «koshki shu yerga gʻisht qoʻyilsa edi» debdilar. Oʻsha gʻisht menman. Men xotamun nabiyyinman». Ibn Arabiy tush (roʻyo) orqali bu boʻshliqni, biri oltin, biri kumush ikki gʻishtlik joy sifatida koʻrgan. Kumush gʻishtning xotamul avliyoning zohiriy jihatiga, oltin gʻishtni esa uning botiniy jihatiga ishora etishini aytgach, bunday degan: «Xotamul avliyo ilmu maʼrifatini shunday bir manbadan oladiki, paygʻambarga vahiy keltirgan malak ham oʻsha narsadan oladi». Ibn Arabiy «valiy nabiyan ustundir», degan fikrni oʻrtaga tashlab, uni «Fusus al-hikam» asarida: «Bir kishi «valoyat nubuvvatdan ustun» deganini yoki undan shunday rivoyat naql etilganini eshitsang, bilgingki, u faqatgina biz aytgan haqiqatni nazarda tutib aytgandir. Hatto ulardan birining «valiy-nabiyan va rasuldan ustundir» degan gapini eshitsang, u bu soʻzi bilan bir shaxsni koʻzda tutgandir. Chunki u shaxsning nabiyan va rasullik maqomidan valiy maqomi yanada mukammaldir. Aksincha, nabiyan bogʻliq boʻlgan valiy hech vaqt nabiyan ustun emas. Zero, tobe boʻlgan kishi tobe boʻlgan narsasida aslo oʻzi tobe boʻlganni oʻtib keta olmaydi. Agar tobe boʻlgan shaxs tobe boʻlganidan oʻtib ketsa edi, tobe boʻlmasdi. Buni yaxshilab tushunib yet!»<sup>3</sup>, - deb fikrlarini izohlaydi.

Hakim Termiziy oʻz zamonasining diniy va dunyoviy ilmlaridan har tomonlama chuqur bilimga ega boʻlgan olimlardan edi. Hakim Termiziy «Hikmat-bu bilim» degan gʻoyani jiddiy himoya qilgan hamda sulukda ilm maqomini olishi yoʻlida koʻp jonbozliklar koʻrsatgan. Uning mukammal ilmi va beqiyos salohiyatiga koʻpchilik allomalar yuksak baho berganlar. Jumladan, buyuk mutafakkir Abdurahmon Jomiy «Nafahot ul-uns» asarida, Alisher Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat» asarida uni eng ulugʻ shayxlar qatorida zikr qilganlar va mutasavviflarning ikkinchi boʻgʻiniga kiritganlar. Xususan, Alisher Navoiy hazratlari Hakim Termiziy toʻgʻrisida quyidagi maʼlumotlarni keltirgan: «Muhammad bin Ali Hakimi Termiziy-ikkinchi tabaqadindur. Kuniyati Abu

<sup>1</sup> Hakim Termiziy. Xatm al-avliyo. – B. 463-464

<sup>2</sup> Usmonov I. Al-Hakim at-Termiziy taʼlimotining ibn al-Arabiy qarashlariga taʼsiri // Imom al-Buxoriy saboqlari, 2003. - № 4. – B. 183.

<sup>3</sup> Turar U. Tasavvuf tarixi. – T.: Istiqlol, 1999. – B. 134.





Abdullohdir. Mashoyixi kibordandur va Abu Turob Naxshabiy va Ahmad Hizravayh va Ibni Jalla bila suhbat tutubdur va ko'p hadisi bor va zohir karomati va tasonifi (yozgan asarlari) bor»<sup>7</sup>. Shuningdek, Xoja Bahouddin Naqshband hazratlarining «Biz yigirma ikki yildirkim, Hakim Termiziy tariqatiga ergashamiz» va «Aziz avliyolarning peshvosi Xoja Muhammad ibn Ali Hakim Termiziyning ruhoniyyatiga tavajjuhimga tushganda, har safar menga ta'rif va tavsifdan xoli tasavvuf namoyon bo'ladi»<sup>8</sup>, - deb uning ruhoniylar olamidagi yuksak martaba va maqomlarini alohida e'tirof etganining o'zi ham allomaning tasavvuf ilmida tutgan o'rnini qay darajada ekanligini ko'rsatadi.

## **XORIS IBN ASAD AL-MUHOSIBIYNING “MUHOSIBIYA TARIQATI” ILK SO'FIY TARIQATLARI**

*Misolida Mustafo O'ktamov-FarDU Tarix fakulteti Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

Islom tafakkurida so'fiylik dunyoqarashining birinchi nazariyotchisi Xoris ibn Asad al-Muhosibiy (165-243/781-857) hisoblanib, tadqiqotchi Uott Montgomeri ungacha bo'lgan davrni islom tafakkurining shakllanishi deb ta'riflaydi.

Bu davrda ham islom tasavvuf tafakkuri tabiiy yo'nalishda paydo bo'lgan diniy ilm va fan sifatida qabul qilingan. Bu shakllanish davriga mansub bugungi kunda ham mavjud bo'lgan mumtoz islom ilmlari, fuqarolik, madaniy va diniy jamg'armalarimiz, bir so'z bilan aytganda, boyliklarimiz hisobga olinishi lozim.

Islom tafakkuri va uning asosida vujudga kelgan mumtoz islom fanlari davrning diniy, madaniy va siyosiy xarakterining shakllanishiga mezbonlik qildi. O'sha vaqtdagi ilm-fan Kufa, Bag'dod, Iskandariya va Basra kabi yirik islom markazlari tsivilizatsiya markazlarida tug'ilgan va rivojlangan. Ayniqsa, Basra shahri ilmiy, siyosiy, madaniy va tasavvufiy jihatlariga juda boy bo'lgan. O'sha davrlarda Basra diniy tafakkur va ilm-fandagi faolligi, yangi yutuqlar sahnasi jihatidan islom olamining eng muhim markazlaridan biri bo'lgan edi. U yerda Mursiy va Kaderiya, Nazzam, Vasil ibn Ato, Hasan al-Basriy va va boshqalar Basrada ash'ariy g'oyalarini yoyib, rivojlantirdilar.

Basra shahri Xarris ibn Asad al-Muhosibiy kabi so'fiy shaxs yetishib chiqqan maskanlardan biridir. Uning to'liq ismi Abu Abdulloh Horis ibn Asad al-Anaziy bo'lgan Muhosibiy Basradagi eng qudratli shahar edi.

Muhosibiy o'zida tasavvufiy va botiniy hayot tarzini o'zida mujassam etgani uchun so'fiy hisoblangan. U doimo o'z nafsini ustida mashq qiladigan odam bo'lgan. U yashagan davr zohidlik va tasavvufiy hayot tarzini ixtiyor etgan kishilarning davridir. Uning shaxsiy hayotiga o'rganar ekanmiz uning so'fiy shaxsi emas, balki uning tashqi ko'rinishlari, shu tushuncha bilan bog'liq so'zlari va asarlari va

<sup>7</sup> Uvatov U. Ikki buyuk donishmand, - T.: Sharq, 2005. – B. 77.

<sup>8</sup> Uvatov U. Ikki buyuk donishmand, - T.: Sharq, 2005. – B. 77.



BILIMDONI	
<i>Oripova M.Q.</i> .....	101
IBN ARABIY SHE'RIYATIDA VAHDAT MASALASI	
<i>Boltayev A.A.</i> .....	104
ABULQOSIM QUSHAYRIY VA SILSILAI ZAHABIYA	
<i>Qodirov D.H.</i> .....	106
IMOM AL-BUXORIYNING HADIS ILMIGA QO'SHGAN HISSASI	
<i>Qalandarova F. A.</i> .....	108
IBN SINO FALSAFIY MEROSINING MA'NAVIY-MA'RIFIY ASOSLARI	
<i>Nurova Sh.N.</i> .....	110
HAKIM TERMIZIYNING "XATM AL-AVLIYO" ASARIDA VALIYLIK MASALASI VA UNING MUTAFAKKIRLAR ILMIY MEROSIGA TA'SIRI	
<i>Xaitov L.</i> .....	112
XORIS IBN ASAD AL-MUHOSIBIYNING "MUHOSIBIYA TARIQATI" ILK SO'FIY TARIQATLARI	
<i>Misolida M.O'</i> .....	114
YA'QUBI CHARXIY TA'LIMOTIDA VAHDAT UL-VUJUD TAMOYILI.	
<i>Zoyirov E.X.</i> .....	116
IMOM AL-BUXORIY HADISLARINING O'RGANILISHI	
<i>Qalandarova F. A.</i> .....	118
ABU ALI IBN SINO ASARLARIDA TA'LIM VA TARBIYA MASALASI	
<i>Nurova Sh.</i> .....	120
NAJMIDDIN KUBRO VA KUBROVIYA TARIQATINING O'ZIGA XOSLIGI	
<i>Alimova Sh.</i> .....	122
SO'FIY AYOL ROBIA ADAVIANING FALSAFIY QARASHLARI	
<i>Bozorova R. Sh.</i> .....	125
XOJA AHMAD YASSAVIY VA YASSAVIYA TARIQATI	
<i>Alimova Sh.</i> .....	127
XOJA ABDUXOLIQ G'IJDUVONIY VA XOJA ORIF REVGARIY TA'LIMOTLARIDAGI INSONPARVARLIK QARASHLARINING O'ZIGA XOSLIGI	
<i>Dehqonov B.B.</i> .....	129
MARKAZIY OSIYODA ILK TASAVVUF AMALIYOTINING VUJUDGA KELISHI VA UNING SHAXSLARNI IJTIMOY HIMOYA QILISHDAGI RAVNAQI.	
<i>Ismailov Sh.A.</i> .....	132
<b>MARKAZIY OSIYODAGI MUMTOZ TASAVVUFIY TARIQATLAR VA ULARDAGI FALSAFIY G'OYALAR</b> .....	134
MARKAZIY OSIYO BUYUK SIYMOLAR BESHIGI.	
<i>Mavlyanov U.N.</i> .....	134
MIRZO ABDULQODIR BEDIL FALSAFANING BILIMDONI	
<i>Raxmatova X.X.</i> .....	136
MARKAZIY OSIYO HUDUDIDAGI TASAVVUFIY TARIQATLAR VA ULARNING TASNIFI	
<i>Evatov S.S., O'ktamov M.</i> .....	138
HAKIM TERMIZIY MA'NAVIY MEROSIDA KASB VA RIZQ MASALASI	
<i>Xaitov L. A.</i> .....	141
HADIS VA TASAVVUF MUSHTARAKLIGI.	
<i>Jo'rayeva L.</i> .....	143
SHARQ MUTAFAKKIRLARI ILMIY MEROSIDA OILANI BOSHQARISHDA FARZAND TARBIYASI MASALASINING YORITILISHI.	
<i>G'afurov D. O.</i> .....	145
ABU HAFS KABIR BUXORIY HAZRATLARI-MA'NAVIY KOMILLIK TIMSOLI	